



XALQ DEPUTATLARI SIRDARYO VILOYATI KENGASHI Q A R O R I

100120, Guliston sh., Islom Karimov k., 60-uy, tel: (67)225-33-51, 225-06-78, e-mail: sirdaryo@exat.uz

2023 - yil 18 - iyul

VI-52-95-9-0-K/23

Sirdaryo viloyati hokimligi

Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashining namunaviy reglamentiga o'zgartish va qo'shimcha kiritish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2023-yil 29-maydagi **“Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining namunaviy reglamentiga o'zgartish va qo'shimcha kiritish to'g'risida”**gi KQ-510-IV-sonli qarori ijrosini ta'minlash hamda O'zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi Qonunining 6, 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi **qaror qiladi:**

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2023-yil 29-maydagi **“Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining namunaviy reglamentiga o'zgartish va qo'shimcha kiritish to'g'risida”**gi KQ-510-IV-sonli qarori ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashining 2021-yil 14-sentabrdagi VI-25-29-9-0-K/21-sonli qarori bilan tasdiqlangan Xalq deputatlari viloyat Kengashining reglamentiga ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimcha kiritilsin.

3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2023-yil 29-maydagi **“Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining namunaviy reglamentiga o'zgartish va qo'shimcha kiritish to'g'risida”**gi KQ-510-IV-sonli qarori 2-bandiga asosan **Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga bir oy muddatda** ushbu o'zgartish va qo'shimcha asosida o'z reglamentlarini qayta ko'rib chiqish hamda tasdiqlash tavsiya etilganligi ko'rsatib o'tilsin.

4. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashi raisining o'rinbosari M.Xodjiyev va Kengash huzuridagi Reglament va deputatlik odobi masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi X.Artukbayeva zimmasiga

yuklatilsin.

Kengash raisi



A.Mahmudaliyev

Xalq deputatlari Sirdaryo
viloyat Kengashining
2023-yil 18-iyuldagi
VI-52-95-9-0-K/23-son qaroriga
1-ilova

Xalq deputatlari viloyat Kengashining reglamentiga kiritilayotgan o‘zgartish va qo‘shimcha

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 31-iyuldagi SQ-360-IV-sonli qaroriga asosan Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2021-yil 14-sentabrdagi VI-25-29-9-0-K/21-sonli qarori bilan tasdiqlangan Xalq deputatlari viloyat Kengashining reglamentiga quyidagi o‘zgartish va qo‘shimcha kiritilsin:

- 1) **98-modda** chiqarib tashlansin;
- 2) quyidagi mazmundagi **XII¹** bob bilan to‘ldirilsin:

“XII¹ bob. Deputatni daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik olish to‘g‘risida kiritilgan taqdimnomani ko‘rib chiqish

99¹-modda. Deputatni daxlsizlik huquqidan mahrum qilish to‘g‘risidagi masala tegishincha viloyat, tuman, shahar prokurorining yoki yuqori turuvchi prokurorning taqdimnomasiga binoan mahalliy Kengash tomonidan o‘n kun ichida hal etiladi.

Senator etib saylangan deputatni daxlsizlik huquqidan mahrum qilish masalasi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a’zosining maqomi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan tartibda hal etiladi.

99²-modda. Deputatni javobgarlikka tortishga rozilik olish to‘g‘risida quyi prokuror tomonidan kiritilgan taqdimnomani yuqori turuvchi prokuror chaqirtirib olishi mumkin.

99³-modda. Deputatni jinoiy javobgarlikka tortishga, ushlab turishga, qamoqqa olishga yoki unga nisbatan sud tartibida beriladigan ma’muriy jazoni qo‘llashga rozilik olish to‘g‘risidagi prokuror taqdimnomasi mahalliy Kengashga kelib tushgandan keyin mahalliy Kengash kotibiyati tomonidan rasmiylashtiriladi va shu kunning o‘zida mahalliy Kengash raisiga hamda Reglament va deputatlik odobi masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisiga taqdim etiladi.

99⁴-modda. Taqdimnoma Reglament va deputatlik odobi masalalari bo‘yicha doimiy komissiyaga kelib tushgandan keyin ikki kun ichida komissiya majlisida muhokama qilinadi.

Muhokama jarayonida daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik soʻralgan deputatning oʻzi ham ishtirok etadi.

99⁵-modda. Reglament va deputatlik odobi masalalari boʻyicha doimiy komissiya majlisida taqdimnomani muhokama qilish yakunlari bayonnoma shaklida rasmiylashtiriladi.

Bayonnomada majlis boʻlib oʻtgan sana, vaqt, joy, komissiya aʼzolarining va daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik soʻralgan deputatning ishtiroki, raislik qiluvchi, prokuratura vakilining familiyasi, ismi, lavozimi, muhokama jarayonida bildirilgan fikr mulohazalar mazmuni va ovoz berish natijalari batafsil yoritiladi.

Bayonnomada Reglament va deputatlik odobi masalalari boʻyicha doimiy komissiyaning deputatni daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik berish yoki rad etish boʻyicha xulosasi aks ettiriladi hamda ushbu masalani mahalliy Kengash sessiyasi muhokamasiga kiritish nazarda tutiladi.

99⁶-modda. Mahalliy Kengash kotibiyati taqdimnomani rasmiylashtirgandan keyin uni koʻrib chiqish boʻyicha kelgusi oʻn kun ichida oʻtkaziladigan sessiya kun tartibiga kiritish yuzasidan mahalliy Kengash raisiga taklif kiritadi.

Agarda navbatdagi sessiya yaqin uch kun ichida oʻtkazilishi belgilangan va bu sessiya Reglament va deputatlik odobi masalalari boʻyicha doimiy komissiyaning majlisi oʻtkaziladigan kundan oldin boʻlsa yoki yaqin oʻn kun ichida sessiya oʻtkazilishi rejalashtirilmagan boʻlsa taqdimnomani muhokama qilish boʻyicha navbatdan tashqari sessiya chaqiriladi. Bunda sessiyani chaqirish boʻyicha qonunchilikda belgilangan talablarga rioya etilishi shart.

99⁷-modda. Mahalliy Kengash sessiyasida daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik soʻralgan deputatning oʻzi ham ishtirok etadi, taqdimnoma prokuratura vakili ishtirokida muhokama qilinadi.

Mahalliy Kengash sessiyasida taqdimnomani koʻrib chiqish masalasi muhokama qilinayotganda daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik soʻralgan deputatning raislik qilishi mumkin emas.

Muhokama yakunlari boʻyicha deputatni daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik berish yoki rad etish boʻyicha ovoz berish jarayoni oʻtkaziladi. Sessiyada ishtirok etayotgan deputatlarning taklifiga asosan ovoz berish yopiq shaklda oʻtkazilishi ham mumkin.

99⁸-modda. Mahalliy Kengash sessiyasida deputatni daxlsizlik Huquqidan mahrum qilishga rozilik olish boʻyicha taqdimnomani koʻrib chiqish jarayoni daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik soʻralgan deputatning roziligi bilan

sessiya ochiq yoki yopiq shaklda o‘tkazilishidan qat’iy nazar videotasvirga olinadi hamda videomateriallar mahalliy Kengash kotibiyatida saqlanadi.

99⁹-modda. Mahalliy Kengashning deputatni daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik berish yoki rad etish masalasiga doir qarori rasmiylashtirilgandan keyin darhol tegishli prokurorga yuboriladi.

99¹⁰-modda. Deputatni daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik olgan prokuror ish yuritishi tamomlangan kundan e’tiboran uch kunlik muddat ichida mahalliy Kengashga ishni tergov qilish, sudda ko‘rib chiqish natijalari to‘g‘risida xabar qilishi shart.

Mahalliy Kengashning deputatni daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik berishni rad etgani unga nisbatan jinoyat ishi yuritilishini yoki sud tartibida beriladigan ma’muriy jazoni nazarda tutadigan ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish yuritilishini istisno etadigan va bunday ishlarni tugatishga olib keladigan holat hisoblanadi”.